

**YUNON-BAQTRIYA SIYOSIY SULOLALARI - HUKMDORLAR
VA ULARNING MEROSI**

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi,

Norbo'tayev Alibek Bobomurod o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yunon-Baqtriya podsholigi va uning siyosiy sulolalari — Diodot, Yevtidem va Yevkratedlar — hukmdorlar almashuvi, keng hududlarni qo'lga kiritish va madaniy sintez orqali tarixda qoldirgan izlari orqali tahlil qilinadi. Numizmatik va arxeologik tadqiqotlar saltanat davrlari va davlat boshqaruvini aniqlashda asos bo'ladi. Yunon-Baqtriyaning siyosiy va madaniy merosi ellinizmning sharqiy chegarasi va Markaziy Osiyo tarixi uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Yunon-Baqtriya davlati, siyosiy sulolalar, Diodot, Yevtidem va Yevkrated, hukmdorlar almashinuvi, saltanat boshqaruvi, numizmatika va arxeologiya, ellinizm, Markaziy Osiyo, madaniy meros.

Yunon-Baqtriya podsholigi eramizdan avvalgi III asr oxirida — taxminan 256–250 yillarda — qadimgi sharqiy ellinizm davri fonida paydo bo'ldi. Uning asoschisi — sobiq salavkiy saltanatining Baqtriyadagi satrapi Diodot I bo'lib, u eramizdan avvalgi taxminan 255–250 yillarda mustaqillik e'lon qildi.

Diodot I dan keyingi sulola — Diodotidlar sulolasi — orqali davlat boshlandi. U keyinchalik vorisi Diodot II ga o'tdi, ammo keyingi sulola — Yevtidem I boshliq sulola — (Yevtidemidlar) Baqtriyaning barqaror va kuchli davlatga aylantirdi[5].

Yevtidem I dan so'ng sulola taxti uning o'g'li Demetriy I ga o'tdi. Demetriy I saltanati davri Yunon-Baqtriya eng keng hududlarga ega bo'lgan, shuningdek Hindiston shimoli-g'arbga yurishlar qilgan. Bu yurishlar natijasida shimoliy

Hindistonning ba'zi hududlarida ellinistik hukmronlik paydo bo'ldi, ya'ni Indo-yunon qirolligi shakllanishiga asos yaratildi.

Demetriy I dan keyin taxt bir nechta sulola va vorislar orqali almashdi: taxminan mil.avv. 190–180 yillarda hukmronlik qilgan podsholar; shuningdek, taxminan mil.avv.185–170-yillarda hukmronlik qilgan Antimakus I. Biroq bu davrlar yozma manbalarga kam asoslangan bo'lib, hukmdorlarning nomlari ko'pincha faqat tangalardan (numizmatik materiallardan) ma'lum bo'ladi.

Eng qudratli va keng tanilgan sulola esa — usurpator yo'li bilan hokimiyatga kelgan Yevkired I ga tegishlidir. U taxminan mil.avv. 171/170 -145-yillarda hukmronlik qilgan va “Katta Qirol (Megas)” unvonini olgan. Uning hukmronligi davrida Yunon-Baqtriya tarixi cho'qqisiga ko'tarilgan — u Hindiston shimoli-g'arbini ham yurishlar orqali zabt etgan, keng tangashunoslik merosini qoldirgan[3].

Yevkired I dan keyin vorislar orasida qisqa muddatli qirollar mavjud bo'lgan: masalan, Yevkired II, Plato va nihoyat Geliokl I. Geliokl I yunon ritsarlari hukmronligidagi so'nggi qirol bo'lib, taxminan miloddan avvalgi 130–120-yillar atrofida Yunon-Baqtriya podsholigi siyosiy jihatdan tugadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'plab hukmdorlarning nomi va saltanat davri faqat tangalardagi yozuv va zarbalar orqali bilinadi. Yozma manbalar juda kam bo'lgani sabab, tarixchilar numizmatik va arxeologik dalillarga tayanadi.

Shu o'rinda Yunon-Baqtriyaning siyosiy va madaniy merosi, qulash sabablariga to'xtalsak, Yunon-Baqtriya hukmdorlari saltanati davrida ellinistik madaniyat, yunon san'ati, shaharsozlik, tangashunoslik, boshqaruv institutlari Sharq yurtlari bilan uyg'unlashdi. Bu davlat Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Hindiston shimoli-g'arbini qamrab olib, ellinizm tarqalishining sharqiy poydevorini yaratdi[1].

Ammo mil.avv. II asrning o'rtalaridan boshlab ichki siyosiy barqarorlikni saqlash mushkil bo'la boshladi. Sulolalar almashuvi, sub-qirolliklar, taxt vorislarining ziddiyati, hududiy bo'linishlar podsholik hokimiyatini zaiflashtirdi.

Numizmatik tahlillarga ko'ra, oxirgi hukmdorlar davrida tangalar va pul muomalasi pasaygan; bu esa ichki iqtisodiy va siyosiy inqiroz belgisidir.

Bundan tashqari, tashqi tahdidlar ham jiddiy edi. Parfiya imperiyasi mil.avv. 150-yillarda G'arbiy Baqtriya hududlarini bosib oldi — bu bilan Yunon-Baqtriyaning iqtisodiy va siyosiy quvvati sezilarli darajada kamaydi. Shu bilan birga, shimoliy va sharqiy tomondan ko'chmanchi qabilalar (masalan, Yuechji / Dayuezhi) bosqinlari ham davlatning barqarorligini keskin buzdi[2].

Natijada, miloddan avvalgi taxminan mil.avv. 130–120-yillarda Yunon-Baqtriya siyosiy jihatdan yo'q bo'lib ketdi; uning hududlari — xususan Janubiy Baqtriya va Hindiston shimoli-g'arbidagi territoriyalar — keyinchalik boshqa davlatlar tomonidan zabt etildi, xalqaro savdo yo'llari va madaniy integratsiya esa yangi hukmdorlar — masalan, dayuezhi va keyinchalik Kushan imperiyasi — qo'lida davom etdi.

Ammo Yunon-Baqtriyaning siyosiy va madaniy merosi uzoq davom etdi. Jumladan, yunon san'ati, tangalar, arxitektura, yunon yozuvi va ellinizm unsurlari, Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo-madaniy ko'prik sifatida uzoq vaqt davomida ta'sir ko'rsatdi.

Yunon-Baqtriya tarixini o'rganishda eng muhim manbalar — numizmatika (tangalar), arxeologik qazishmalar va cheklangan klassik yozma manbalardir. Numizmatik tahlil — tangalar dizayni, epitellari, zarb joylari va tarqalish hududi orqali sulolalar tartibi, hukmdorlar almashuvi, iqtisodiy holat va til-madaniy holat haqida ma'lumot beradi[4].

Arxeologik qazishmalar orqali esa — masalan, shimoliy Afg'onistondagi Oyxonum shahrida — yunon shaharsozligi unsurlari, binolar, hunarmandchilik, shuningdek Sharq va G'arb madaniyati sintezi aniq ko'rinishga ega bo'lgan. Yozma manbalar esa kam bo'lganiga qaramay, ularning (masalan, Yunon va Rim tarixchilari, hamda keyinchalik Sharqiy manbalar) ayrim izoh va xabarlar bilan numizmatik va arxeologik faktlarni kontekstga joylash mumkin.

Shunday qilib, hozirgi zamonaviy ilmiy manzara — Yunon-Baqtriyaning to'liq "xronik kitob" darajasida qayta tiklashdan ko'ra, uning siyosiy sulolalari,

hukmdorlari va tarixi uchun numizmatika va arxeologiya asosida ehtiyotkor, ehtimollarga tayangan rekonstruksiyalar yaratishga asoslangan[1].

Xulosa qiladigan bo'lsak, Yunon-Baqtriya podsholigi — ellinizmning sharqiy chegarasida, Markaziy Osiyo va Hindiston shimoli-g'arbida shakllangan noyob davlat edi. Uning siyosiy sulolalari — Diodotid, Yevtidem va Yevkratedlar hukmdorlar almashuvi, keng hududlarni qo'lga kiritish va ellin-sharqiy madaniy sintez orqali tarixda muhim iz qoldirdi. Tangalar, arxeologik topilmalar va tarixiy tahlillar orqali biz bu sulolalar hamda hukmdorlar tarixini ko'rishimiz mumkin. Biroq bu tarix — bugungi kuncha to'liq emas; ko'plab hukmdorlar nomlari, saltanat yillari, taxt almashuvi tartibi aniq emas; biz ularni taxminlar asosida tiklaymiz. Shu sababli Yunon-Baqtriya tarixi — numizmatika va arxeologiya nuqtai nazaridan “yashirin tarix” hisoblanadi, va u bo'yicha tadqiqotlar hali ham davom etmoqda.

Yunon-Baqtriya siyosiy sulolalari va ularning merosi — nafaqat O'zbekiston, Afg'oniston, Tojikiston hududlari, balki butun Markaziy Osiyo hamda Hindiston shimoli-g'arbidagi kulturo-siyosiy aloqalar tarixini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Mamatqulov A. – Yunon-Baqtriya va Hindiston shimoli-g'arbidagi ellinistik aloqalar.2018. Toshkent. 60-66-b.
- 2.Ravshanova M., Xurramov O. Baqtriya tarixi va yunon-makedon istilolari. 2019. “O'zbekiston tarixi” jurnal, 7-son, 34-39-b.
- 3.Sagdullayev A., va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. 2000. Toshkent. 23-b.
- 4.Usmonov N. Markaziy Osiyoda Yunon-Baqtriya madaniy merosi. 2020. Toshkent. “Tarix va madaniyat” nashriyoti. 45-52-b.
5. www.wikipedia.org. internet sayti